

46. Yo'l, vaqt, tezlik




Yondosh mavzu:
ko'chadagi o'yinlar

Sonli nur, koordinata,
tezlik, vaqt, masofa.



1. Jasur bir necha qadam yurdi. Chizg'ich bo'yicha uning qadamlarining uzunligini aniqlang. Jasur 10 qadamda qancha masofani bosib o'tdi?

Umida ikki sakrashda 4 m masofani bosib o'tdi. Uning sakrash uzunligi qancha? U 72 m uzunlikdagi yo'lda nechta sakrashni amalga oshiradi?




2. v (tezlik), t (vaqt) va S (masofa) bilan bog'liq uchta formulani eslang.

- a) Agar $t = 7$ h, $v = 400$ m/h bo'lsa, S ni hisoblang.
b) Agar $S = 980$ km, $v = 49$ km/min bo'lsa, t ni hisoblang.
d) Agar $S = 276$ m, $t = 6$ s bo'lsa, v ni hisoblang.



3. Bolalar hovlida o'ynashardi. Har bir bola uchun uning harakat tezligini aniqlang. Agar ular shu yo'nalishda harakat qilishda davom etsa, t vaqtdan keyin bolalarning joylashuvi qanday o'zgaradi? Ular qaysi nuqtaga yetib boradi?





4. Bolalar hovlida "Bolalar, to'xtanglar" o'yinini o'ynashdi. Bu o'yinda boshlovchi to'pni yuqoriga otadi va to'p qaytib tushguncha bolalar har tomonga tarqalishadi. Boshlovchi to'pni ushlashi bilan, "To'xtanglar" deb baqiradi. Barcha ishtirokchilar to'xtaydi. Boshlovchi ulardan birini tanlaydi va ungacha bo'lgan masofa necha qadamligini aytadi. Keyin boshlovchi bu ishtirokchining oldiga qadam tashlab boradi. Agar boshlovchi oraliq masofani to'g'ri aniqlay olgan bo'lsa, u to'p bilan ishtirokchiga tegib to'xtaydi. Agar boshlovchi buni uddalay olsa, unda u boshlovchilikni ushbu ishtirokchiga topshiradi.

Jasur uch marta boshlovchilik qilgan, lekin u uchalasida ham ishtirokchi orasidagi masofani aniqlashda adashgan. Quyidagi ishtirokchilar orasidagi masofa necha santimetr, metr yoki detsimetr bo'lgan?

Azizagacha: 3 ta katta qadam, 2 ta odatdagi qadam va 3 ta liliputch qadam;


Madinagacha: 4 ta katta qadam va 5 ta chumoli qadam.

Akmalgacha: 4 ta katta qadam va 3 ta o'rdak qadam.

Yordam:



O'rdak
qadam 28 cm



Liliput
qadam 24 cm



Chumoli
qadam 12 cm



Odatdagi
qadam 32 cm



Katta
qadam 78 cm



5. Hisoblang.

$$2 \text{ h } 47 \text{ min} + 6 \text{ h } 28 \text{ min}$$

$$5 \text{ h } 20 \text{ min} - 3 \text{ h } 45 \text{ min}$$

$$4 \text{ min } 52 \text{ s} + 3 \text{ min } 48 \text{ s}$$


$$12 \text{ min } 12 \text{ s} - 3 \text{ min } 38 \text{ s}$$

$$6 \text{ d } 16 \text{ h} + 3 \text{ d } 10 \text{ h}$$

$$8 \text{ d } 4 \text{ g} - 5 \text{ d } 12 \text{ h}$$



6. Ko'chada o'ynaladigan o'yinlar bilan bog'liq bo'lgan va ushbu sxema bo'yicha yechiladigan bir nechta misollar o'ylab toping. Ulardan birining yechilishini yozing.



46. Yo'l, vaqt, tezlik



7. Aziza "klassiklar" o'yini uchun yerga kataklar chizdi. Kataklardagi har bir to'g'ri to'rtburchakning bo'yi 28 cm, eni 15 cm. Agar yuqoridagi yarim aylananing yuzi 982 cm^2 bo'lsa, kataklarning umumiy yuzi qancha?



8. Bolalar maydonchada turli xil o'yinlar o'ynashdi. Bolalarning bir qismi "klassiklar" o'yinini, ulardan ikki marta ko'p bolalar "bo'yoqlar" o'yinini o'ynadi. "Kartoshka" o'yinini esa "klassiklar"ga qaraganda 3 marta ko'p bola o'ynadi. Agar maydonda hammasi bo'lib 24 nafar bola bo'lsa, har bir o'yinni nechta bola o'ynagan?



9. Madina bir son o'yladi. Aziza Madina o'ylagan songa 1 ni, Umida esa 13 ni qo'shdi. Ma'lum bo'lishicha, Umida o'ylagan son Aziza o'ylagan sondan 4 marta katta. Madina qanday son o'ylagan?



10. Amallarning to'g'ri tartibiga rioya qilgan holda hisoblang. Bolalarning sevimli o'yinlaridan birining nomini bilib oling.
 $(64\ 560 - 237 \cdot 109 - 4\ 200\ 000 : 140) + 216\ 700 : 4 : 25$

I 30 000

R 10894

M 38727

K 25 833

E 72 677

A 2167

O' 8727

Z 54 175



11. Sxema bo'yicha sportchi qanday tezlikda yugurishini aniqlang. U 4 sekundda qancha masofaga yuguradi? 8 sekundda-chi? Bir minutda-chi? Agar u shu tezlikda harakatlansa, 400 m masofaga yugurish uchun qancha vaqt sarflaydi?



v , m/s

